



# Mavzu:Pirimqul Qodirov




- Adabiyot
- O‘qituvchi:Abdukadirova Muqaddam Mo‘ydinovna



- Reja:

1. Pirimqul Qodirovning hayoti va ijodi.
2. Adibning tarixiy asarlari.
3. “Yulduzli tunlar” romanida Bobur obrazi

- Yozuvchi, tarjimon, publitsist, adabiyotshunos olim, o‘zbek nasrining yirik namoyandalaridan biri Pirimqul Qodirov Turkiston tizma tog‘ining etaklaridagi Kengko‘l degan qishloqda 1928- yilning 25-oktyabrida tug‘ilgan. U asli o‘zbekning barlos qavmidan; urushdan keyingi yillarda jamoa xo‘jaligida, yo‘l qurilishi, so‘ng Bekobod metallurgiya zavodida ishladi.





- 1951 yili O‘rta Osiyo Davlat universitetining Sharqshunoslik fakultetini tugatib, Moskvadagi M. Gorkiy nomidagi Adabiyot institutining aspiranturasiga o‘qishga kirdi. “Abdulla Qahhorning urushdan keyingi ijodi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.
- 1954–1963 yillarda u sobiq ittifoq Yozuvchilar uyushmasi qoshida o‘zbek adabiyoti bo‘yicha maslahatchi, O‘zRFA Til va adabiyot institutida katta ilmiy xodim (1963–1983), O‘zbekiston Respublikasi Adabiyot, san’at va me’morchilik sohasidagi Davlat mukofotlari qo‘mitasi raisi (1989–1994) bo‘lib ishladi.




- Adib ijodining debochasi – “Studentlar” (1951) hikoyasi talabalik yillarda e’lon qilinib, tolibi ilmlar hayotini, ularning ichki olamini yoritadi. Shundan keyin “Jon shirin”, “Kayf”, “Olov” hikoyalari, “Qadrim” (1961), “Erk” (1968), “Meros” (1974) qissalari, “Najot”, “Baxillar va botirlar” afsona qissalari (1980), “Akramning sarguzashtlari” (1974), “Yayra institutga kirmoqchi” (1970) nomli qissa va hikoyalar to‘plamlari birin-ketin chop qilindi.
- P. Qodirov roman janrida qalam tebratib, “Uch ildiz” (1958), “Olmos kamar” (1976) romanlarini yaratdi. Adib avval “Yulduzli tunlar” (1979), keyin “Avlodlar dovonii” (1989) romanlari bilan o‘zbek tarixiy romanchiligi rivojiga katta hissa qo‘shti.



# Pirimqul Qodirov tarixiy asarlari:



- P. Qodirov "Yulduzli tunlar"
- P. Qodirov "Avlodlar dovoni"
- P. Qodirov "Ona lochin nidosi"





- G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida adibning uch jildlik tanlangan asarlari (1977–1978) nashr qilingan.
- Pirimqul Qodirov adabiyotshunos olim sifatida “Til va el” (1972), “Xalq tili va realistik proza” (1973), “Til va dil” (2005) risolalarini yaratdi. Ikki jildli “Adabiyot nazariyasi” uchun “Adabiy asarning tili”, “Adabiy jarayon” boblarini yozdi.
- Zangori olov zahmatkashlari haqidagi “Qadrim” qissasi asosida “Sening izlaring” badiiy filmi (rejissyor R. Botirov), “Yulduzli tunlar” romani, “Jon shirin” hikoyasi asosida ko‘p seriyali videofilmlar suratga olingan. “Bobur” pyesasi (rejissyor B. Yo‘ldoshev) uzoq yillar mobaynida hozirgi O‘zbek milliy akademik drama teatrida, “Insof” pyesasi esa viloyatlar drama teatrlari sahnalarida qo‘yilgan.



- Adib kitobxonlarga “Ona lochin nidosi” degan tarixiy romanini (1997) taqdim etdi. 2001- yilda esa uning “Qalb ko‘zlar” nomli (badealar, o‘ylar, esdaliklar) kitobi chop etildi. “Amir Temur siymosi” (2007) tadqiqoti tariximizni xolis o‘rganish borasida muhim o‘rin egalladi.
- P. Qodirov tarjimon sifatida L. Tolstoyning “Kazaklar”, K. Fedinning, “Dastlabki quvonchlar”, P. Tolisning “Iz”, X. Deryayevning “Qismat” qissasi va romanlarini ona tilimizga o‘girgan. Uning asarlari rus, ukrain, hind, urdu, turk, uyg‘ur, qozoq, qirg‘iz, turkman tillarida nashr etilgan.
- “Yulduzli tunlar” romani uchun Pirimqul Qodirov 1981- yili Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan. U O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati (1997–2000), Respublika Oliy Majlisi fan, madaniyat va ta’lim qo‘mitasi raisi (1991–1995) bo‘lgan.



- Bolakay kitobxonlar uchun P. Qodirov qiziqarli yo‘nalishdagi qissalar yozgan — “Akromning sarguzashtlari”, “Najot” va “Yayra institutga kirdi”. Yozuvchining kichik asarlari orasida o‘tkir syujetli hikoyalari “Jon shirin” va “Umid” asarlari ommabop bo‘lgan. “Umid” — rus, ukrain va boshqa tillarga tarjima qilingan.
- P. Qodirovning badiiy til va ijodiy jarayon haqidagi ilmiy asarlari ham mashhur — ular “Adabiyot nazariyasi” akademik ikki bobligida o‘zbek tilida nashrdan chiqqan.



- P. Qodirov tarjimonlik ishiga ham o‘z hissasini qo‘sghan — u o‘zbek tiliga L. Tolstoyning “Kazaklar”, M. Yu. Lermontovning “Bela”, F. Fedinning “Birinchi quvonchlar”, turkman yozuvchisi X. Deryayevning “Taqdir” romani va tojik yozuvchisi P. Tolisning “Yoz” nomli qissasini tarjima qilgan.
- Qirq yillik ijodiy faoliyati davomida P. Qodirov kitobxonning yuqori talabini qondiruvchi kitoblar yozadi. Ularning eng yaxshilari respublika chegarasidan tashqarida mashhur bo‘lganligini “Haqiqat”, “Adabiy gazeta” gazetalari, “Yangi dunyo”, “Xalqalar do’stligi” va “Adabiy ko‘zgu” jurnallari sahifalarida berilgan baho tasdiqlaydi.



# “Yulduzli tunlar” asari haqida

Asar nainki adib ijodi, balki, umuman, roman va XX asr o'zbek adabiyot tarixida muhim o'rinni tutadi. Uning chop etilib, o'quvchilar qo'liga tegish tarixi ham o'ziga xosdir. Sho'ro zamonida o'zbek adabiyotidagi buyiik tarixiy siymolarga bag'ishlangan birorta asarining qismati oson kechmadi. Bunga „Abulfayzxon”, „Muqanna”, „Navoiy”, „Mirzo Ulug'bek”,

„Ko'hna dunyo” singari asarlar misoldir. “Yulduzli tunlar” ham bundan mustasno emas. Sho'rolar bunday asarlar xalqning ko'zini ochadi, isyonkor ruhni charxlaydi, ulug' ota-bobolar orqali *buyuk* o'tmishga, ma'naviy qudrat an'analariga intilish va sadoqatni kuchaytiradi, deb qo'rqdilar va yanglisnmadilar. Bunday asarlar mohiyat e'tibori bilan o'zlikni anglashga chorlashi, xalqni zimdan mustaqillikka tayyorlashi mumkin.



- „Yulduzli tunlar“ ham aslida shunday asar edi. Shu bois, roman bir necha yil davomida ne-ne azob-uqubatlar bilan yozilgantga qaramay, olti-yetti yil chop etilmay yotdi. Nihoyat bosilib chiqdi (1978), hatto O'zbekiston Davlat mukofotiga sazovor bo'Idi (1981). Lekin ko'p o'tmay asar va yozuvchi boshiga ko'p og'ir kunlar tushdi. Roman matbuotda feodalizmni targ'ib qiluvchi asar sifatida qoralandi. Muallifga millatchi, burjua yozuvchisi deb tuhmat qilindi.
- Yangi zamon, mustaqillik adibni ham, romanni ham xalqqa qaytardi. "Yulduzli tunlar" shoh, sarkarda, shoir — benazir inson Zahiriddin Muhammad Boburning yorqin siymosi mahorat bilan aks ettirilgan to'laqonli badiiy asardir.



“Yulduzli tunlar”da Boburning Hindistonni egallagunga qadar bo’lgan voqealar:



**Boburning otasi Umarshayx Mirzoning tasodifan  
bevaqt olamdan o’tishi.**

**Boburning Andijon taxtiga o’tirishi**

**Boburning bir necha marta Samarqand uchun bo’lgan  
janglarda goh g’olib, goh mag’lub bo’lishi.**

**Boburning bir tomondan Shayboniyxon, bir tomondan  
taxt uchun kurashayotgan sotqin beklar o’rtasida  
qiying ahvolga tushib qolishi...**

**Ilojsiz qolgan Boburning uch yuz nafar askari  
bilan Afg’onistonni qo’lga kiritib, u yerda  
o’zini shoh deb e’lon qilishi.**

**Katta qiyinchiliklardan so’ng ulkan Hindiston o’lkasining  
qo’lga kiritilishi va “Boburiylar sulolasi”ga asos solinishi.**



- Bu asargacha yozuvchi, asosan, o'z zamondoshlari va zamonasi muammolariga bag'ishlangan asarlar yozdi. „Yulduzli tunlarda” esa, adib ilk bor tarixiy mavzuga murojaat etdi, buyuk tarixiy shaxs obrazini yaratishga kirishdi. Gap mavzu va qahramonning tarixiyligida emas. Asosiysi, jahon tarixi, xususan, O'rta Osiyo va Hindiston tarixida o'chmas iz qoldirgan, markazlashgan davlat tuzib, ko'pdan ko'p xalqlami qirg'inbarot urushlardan saqlab qolgan, murakkab qismatli podshoh, ne-ne jang-u jadallarda mahorat va jasorat ko'rsatgan sarkarda, she'rlaridagi har bir satrda o'z ichki dunyosi, qiyofasi porlab turgan buyuk shoir, har bir so'zidan tarix nafasi keluvchi „Boburnoma” muallifi hamda dilbar tabiat siymosi bu darajada haqqoniy, teran gavdalantirilgan roman shu vaqtgacha o'zbek adabiyotida ham, jahon adabiyotida ham yaratilmagan edi.



- Jahon tarixi badiiy adabiyotida Bobur haqida to'g'ri fikrlardan tashqari bir-biriga zid, ba'zan yanglish, xato, noxolis qarashlar yo'q emas edi. Boburning haqqoniy qiyofasini yaratish, badiiy haqiqat imtiyozlari bilan moziyadolatini tiklash tarix talabi, zamon ehtiyoji va yozuvchining muqaddas burchi edi.
- Shu ma'noda “Yulduzli tunlar” yozuvchi burchini namoyon etgan asar deb e'tirof etiladi. Roman yuqorida e'tirof etilgan jihatlari va buyuk bir tarixiy siyemoning qaytadan kashf etilishi bilan o'zbek adabiyotida mustahkam o'rinnegalladi.



## Erishgan unvonlari:

- O‘zbekiston xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirov “Shuhrat” medali (1994);
- “El-yurt hurmati” (1998);
- “Buyuk xizmatlari uchun” ordenlari (2006) bilan mukofotlangan.



- Uyga vazifa :
- “Yulduzli tunlar” romanini o‘qish